




Tilimizda uchraydigan xatoliklar



**Imloviy
(orfografik)
xatolik**

**Uslubiy
xatolik**

**Ishoraviy
(puntuatsion)
xatolik**

Imloviy xatolik turlari

1. Bor soʻzning oʻrnida yoʻq soʻzni ishlatish

Ehtiyot
~~Ex~~tiyot

2. Tutuq belgisini nooʻrin ishlatish

Taʼlim
~~T~~alim

3. Chiziqchani xato qoʻllash

Sen-chi?
~~Sen~~chi?



4.Qo'shib yozish

jigarrang
~~Jigar~~ rang

5.Ajratib yozish

Har kuni
~~H~~arkuni

6.Bosh harflar imlosi

Abbos
~~a~~bbos

Uslubiy xatolik turlari

Uslubiy
xatolik
quyidagi til
birliklarida
uchraydi

Qo'shimchada

So'zda

Gapda

Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik
tilimizda bor bo'lgan qo'shimcha o'rnida
boshqa unga o'xshash qo'shimchani
ishlatish.

aqli bola
aql~~lik~~ bola

hashamatli
~~ser~~hashamatli

uyning eshigi
uyn~~i~~ eshigi

Eslatma!

Tilimizda yo'q bo'lgan qo'shimchani qo'llash imloviy xatolik
hisoblanadi.

Misol: Boryapti - bor~~ay~~**yapti** (imloviy xatolik)

Uslubiy xatolik soʻzda ushbu holatlarda yuz beradi.

1. Soʻzni notoʻgʻri qoʻllash

Nashriyotlarimizda bolalarga **xos** keladigan badiiy kitoblar ham nashr qilinyapti.

2. Soʻzni oʻrinsiz takrorlash

Kutubxonamizning elektron tizimi dunyo **kutubxonalari** kompyuter tarmogʻiga ulangan **kutubxonalardan** biri hisoblanadi.

3. Soʻzni ortiqcha qoʻllash

Kitoblarda aytilishicha, eng yaxshi odam **ogʻzi** va qoʻli ochiq odamdir.

4. Soʻzni tushirib qoldirish

(Ota-bobalarimiz) Kitobni bejizga oftobga qiyoslamaydilar.

5. Paronimlarni xato qoʻllash

Men shifoxonada bir oy **daʼvolandim**.

**Matndagi uslubiy xatolik gapning mazmunini saqlab,
shaklini o'zgartib qayta takrorlash orqali yuz beradi.**

Keksa donishmand o'z nabirasiga shunday hayotiy haqiqatini so'zlab berdi: **Har bir inson qalbida ikki kuch doimiy kurashishadi.** Bu xuddi ikkita bo'rining olishuvisiga o'xshaydi. Bo'rilarning birisini bejizga yovuzlik timsoli deyilmaydi: unda hasad, xusumat, g'araz, alam, adovatsizlik, behurmatsizlik, xudbinlik, yolg'on kabi illatlari mujassam. Ikkinchi bo'ri esa ezgulik va yaxshilikning timsoli: unda mehr, muhabbat, saxovat, sadoqat, umid va ishonch kabi fazilatlar jamlangan. Har ikkisi o'zaro murosasiz, betinimsiz olishadi.

Odamzod yuragida ikki kuchning kurashishi azaliy holdir.

Bobosining so'zlaridan g'oyat ta'sirlangan nabira biroz o'ylanib turgach, so'raydi:

- Oxirisida qaysi bo'rini yengadi?

Donishmand tabassum bilan shunday javobni berdi:

- Qalbingdagi qaysi bo'rining ko'proq parvarishlasang, o'sha yengib chiqadi.